

**MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA  
KREATIV PEDAGOGNING ROLI**

***Boboqulova Ruxshona Nurullo qizi BuxDPI***

***Boshlang‘ich ta’lim yo ‘nalishi talabasi,***

***Djo‘rayeva Dilfuza Rayimovna***

***Buxoro shahar 17-maktab o‘qituvchisi***

***D.N.Xayrullayeva BuxDPI o‘qituvchisi***

Maqlolada hozirgi zamон ta’lim jarayonidagi yangiliklar, zamонaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishda kreativ fikrlaydigan pedagogning o‘rnı va ahamiyati haqida turli fikrlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** dars, nutq, pedagogika, kreativ pedagog,kashfiyotchi o‘quvchi, ta’lim, tarbiya

The article presents developments in the education process, different views on the role ant importance of the creative educator in the we of modern information technology.

**Keywords:** lesson, speech, pedagogy, creative, pedagogue, inventive, student, education, training

Har bir rivojlangan hamda rivojlanayotgan davlatlarning ta’lim tizimiga nazar soladigan bo‘lsak,ularning barchasida erkinlikka, ijodiylikka yuksak e’tibor qaratilgan. Ta’lim jarayonining qay darajada sifatli olib borilayotganligi bevosita tarbiyachi-pedagogga bog‘liqdir. Bugungi kunning chinakam o‘qituvchisi har tomonlama yetuk va barkamol, o‘qish va izlanishdan aslo to‘xtamaydigan, chin dildan mehnat qilib, yangiliklardan xabardor hamda shu yangiliklarning yaratuvchisi bo‘lmoqligi darkor.

O‘quvchilar o‘zining ideal insonini, albatta, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining siyosida ko‘radi. Unga ishonadi, unga ergashadi. Undan ibrat oladi. Pedagog – bu bola yetaklovchi, uning tarbiyachisi. O‘qituvchilarning fikrlashida, dunyoqarashida, bilim salohiyatining qay darajada ekanligiga pedagogning bilimi hamda salohiyati namoyon bo‘ladi. Nima uchun biz bugungi kunda ijodiylikka, erkinlikka, kreativlikka e’tibor bermoqdamiz? Ayni paytda biz rivojlanayotgan davlatlar qatoridamiz. Endi esa tez orada rivojlangan davlatlar qatoridan o‘z o‘rnimizga ega bo‘lishimiz kerak. Qachonki, biz yuksak salohiyatga ega bo‘lsak, iqtisodiyot ham, texnologiyalar ham jadallik bilan rivojlanadi.

Har qanday ulkan maqsadning kaliti- bu ilm olmoqdir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek “Najot ta’limda, najot tarbiyada, najot bilimda. Ta’limga e’tiborda bir kun emas, bir soat kechiksak bu juda katta ziyon bo‘ladi”.

Kreativ pedagog qanday bo‘lishi kerak? Bu savolga birgalikda javob izlaymiz.

Haqiqiy o‘z kasbini chin dildan sevgan o‘qituvchi, albatta, darsga tayyorgarlik ko‘rib, rejalashtirib kiradi. Bu jarayonda tashxislash, bashoratlash, rejalashtirishga alohida e’tibor qaratmog‘i lozim. Kreativ pedagogning boshqalardan farqi nimada? Albatta, u yangilik yaratuvchi, zamonaviylikka intiluvchi hamda novatsiyalarni ta’lim jarayoniga tadbiq etuvchi bo‘ladi. O‘tmoqchi bo‘lgan darsning mezonzarda muvofiq bo‘lgan eng ma’qul bo‘lgan variantdagi loyihasini tuzgan o‘qituvchi deyarli hamma vaqt o‘qituvchi o‘ziga to‘la yo‘kis jalb eta oladi. Kreativ pedagog bashoratchi bo‘lishi kerak. Dars jarayonidagi har bir savol va topshiriqlarni o‘quvchining bilim, ko‘nikma va egallagan malakasi nuqtayi nazaridan har tomonlama to‘g‘ri taqsimlashi kerak. Yaqin kelajakda ta’lim tizimi qay darajada o‘zgaradi? Bilishimiz kerak bo‘lgan masalalardan asosiysi yaqin kelajak deb biz 2040-yilgacha bo‘lgan davrni nazarda tutdik. O‘zbekiston hozirda katta-katta o‘zgarishlar davrida turibdi. To‘g‘ri, ta’lim tizimimiz rivojlangan davlatlar ta’lim tizimidan ancha orqada. Hech qaysi davlatning ham ta’lim tizimi qisqa vaqtida rivojlanib qolmaydi. Biz shu yaqin 20 yilda ta’lim tizimini qay darajada sayqallashimiz, zamonaviylashtirishimiz siz-u bizga bog‘liq. “Qarz ikki qo‘ldan chiqadi”- deganlaridek, biz barchamiz birgalikda harakat qilmog‘imiz darkor. Yurtboshimiz belgilab bergen ulug‘ yo‘lda dadil qadam tashlab, yuksak marralarni quchish, mustaqil O‘zbekistonimizning xalqaro mavqeyini yanada yuqori pog‘onalarga ko‘tarish bizning qo‘limizda. Kreativ pedagog ham o‘z navbatida mana shunday ulkan maqsadlar qo‘yishni o‘quvchisiga o‘rgatadi. Ongiga vatanparvarlik g‘oyalarini singdiradi. O‘z darsida eng yangi metodlardan, didfaktik o‘yinlardan, zamonaviy axborot –kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda erkin va mustaqil fikrlashni, ijodkorlikni o‘rgatadi. O‘quvchiga kelajakda bajarmochi bo‘lgan ishiga ishonch hissini orttiradi. O‘zgacha mehr-muhabbat bilan yondashadi. O‘zini tinimsiz rivojlatiradi va samaradorlikka erishadi. Masalan, darsda muammoli vaziyatlarda yechim topishda “kreativ yechim” texnologiyasini qo‘llash mumkin. Doimiy yangi-yangi “Vitamin” metodi, “Smartfonjon” metodi “Vark” metodlaridan foydalangan holda o‘quvchilarning qiziqishi ortadi. O‘quvchilarda tasavvur va ichki intuitsiyani rivojlantirib, har qanday mavzuni mukammal eslab qolishga o‘rgatadi.

Kreativ so‘zi lotinchadan olingen bo‘lib, “yaratuvchi”, ijodkor degan ma’nolarni anglatadi. Hozirgi kunda amaliyatga tadbiq etilgan Milliy o‘quv dasturi hamda darsliklarga yangicha yondashilgan. Avvalgi darsliklardan farqli o‘laroq o‘qitish tizimi ham mutlaqo yangicha. Endilikda o‘quvchilar murakkab qonuniyatlarni oddiy tajribalar asosida o‘rganadilar va hayotda turli vaziyatlarda qo‘llay oladilar. Bugungi kunda o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilishga o‘rgatish asosiy maqsadlardan biriga aylangan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2022-yil 28-yanvarda o‘tkazilgan maktab ta’limini rivojlantirish masalalari bo‘yich bo‘lib o‘tgan videoselektorda mamlakat kelajagi barcha sohalar va loyihalar muvaffaqiyati bilimli insonlarga bog‘liq ekanligini ta’kidlab o‘tgan. Kelajak yoshlar qo‘lida. Yosh avlodni

tarbiyalash bi uchun eng asosiy vazifadir. Kreativ pedagoglar safi kengayib, ularning pedagogik mahoratlari ortib, mukammallashib bргани сари kashfiyotchi o‘quvchilarimiz ham ko‘payadi. Ta’lim va tarbiya uzviylikda olib borilishining o‘zi ham biz uchun bir yutuq. Zero, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim pedagoglari jamiki sohalarning mutaxassislarini yetishtirishda poydevor yaratadilar. Shuning uchun ham ularning o‘rni hayotda ham, jamiyatda ham boringki, butun dunyoda beqiyos kuchga ega.